

AXBOROT URUSHI TUSHUNCHASINING G'UYAVIY TABIATI VA MAFKURAVIY XUSUSIYATLARI

Xo'janova Tamara Jo'rayevna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti, f.f.n.
F.f.d., professor G.K.Masharipova taqrizi asosida

ИДЕОЛОГИЧЕСКИЙ ОБЛИК И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ КОНЦЕПЦИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ ВОЙНЫ

Ходжанова Тамара Джораевна,
Доцент Института предпринимательства и педагогики
Денова

IDEOLOGICAL APPROACH AND IDEOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF INFORMATION WAR

Khojanova Tamara Joraevna,
Associate Professor of the Denov Institute of
Entrepreneurship and Pedagogy

Annotatsiya. Maqolada axborot urushi tushunchasi, uning g'oyaviy tabiati va mafkuraviy xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, axborotlashgan jamiyat tendensiyalari har bir hududda insonlar ongiga ba'zi hollarda salbiy ta'sirini o'tkazayotgani uchun, uni bartaraf etish, ijobiy ta'sirini kuchaytirish muhim vazifa sanaladi. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Bugungi global dunyodagi tahdidlarni chuqur o'rganmaslik, ularni bartaraf etish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli sel oqimiga yoki dengiz to'foniga topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi.

Kalit so'zlar: axborot urushi, g'oyaviy muhit, mafkura, mafkuraviy immunitet, salbiy ta'sirlar, globallashuv jarayonlari, yoshlar tarbiyasi.

Аннотация. В статье научно обосновано понятие информационной войны, ее идеологическая природа и идеологические особенности. Поскольку процессы глобализации и тенденции информационного общества оказывают негативное влияние на сознание людей в каждом регионе, важной задачей является его устранение и усиление его положительного воздействия. Невозможно адаптироваться к этому явлению, не изучив его глубоко, а при необходимости и соответствующим образом изменить его направление. Неспособность досконально изучить угрозы в современном глобальном мире, невыработка стратегии, тактики и технологий их устранения равносильны отдаче экономики, культуры и духовности страны проливному наводнению с гор или морскому тайфуну.

Ключевые слова: информационная война, идеологическая среда, идеология, идеологический иммунитет, негативные последствия, процессы глобализации, воспитание молодежи.



<https://orcid.org/0000-0003-3682-1874>

e-mail:
tamaraxujanova7@gmail.com

Tel: (90) 996 06 20

Abstract. *The article provides a scientific basis for the concept of information warfare, its ideological nature and ideological features. Since globalization processes and information society trends have a negative impact on people's consciousness in every region, an important task is to eliminate it and enhance its positive impact. It is impossible to adapt to this phenomenon without studying it deeply and, if necessary, changing its direction accordingly. Failure to thoroughly study the threats in the modern global world, failure to develop a strategy, tactics and technologies for their elimination are equivalent to surrendering the country's economy, culture and spirituality to a torrential flood from the mountains or a sea typhoon.*

Keywords: *information warfare, ideological environment, ideology, ideological immunity, negative consequences, globalization processes, education of youth.*

Kirish. Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar ongini va ma'naviy borlig'ini har xil zararli illatlar, tahdidlar, salbiy omillardan asrash, ularning ijtimoiy-ma'naviy muammolarni bartaraf etish borasidagi chora-tadbirlarni yanada mukammal asoslarda tashkil etish lozim bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqimizga qilgan murojaatnomasida ta'kidlanishicha, "Biz jamiyatimizda har qanday radikallashtirishga, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaymiz. Buning uchun nafaqat mas'ul tashkilotlar, balki barchamiz birgalikda muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, farzandlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha oila, mahalla va ta'lim maskanlarida ish olib borishimiz zarur" [1]. Jahonda axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning kuchayib borishi yoshlarga o'z ta'sir kuchini turli yo'llar bilan o'tkazib kelmoqda. Ayniqsa, kompyuter tarmoqlari orqali axborotni qabul qilib olish va uzatishda aloqa vositalaridan foydalanishning keng joriy etilishi hamda axborotlashtirishning jadal taraqqiyoti axborot uzatish tizimlarini tahdidlardan himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini keltirib chiqardi. Bugungi kunda har qanday axborot yashin tezligida dunyoning turli chekkalariga etib borishi, millionlab odamlar undan bir zumda xabar topishi oddiy xolatga aylangan. Ushbu holatning qulayliklari bilan birgalikda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfli tomonlari ko'proq yoshlarni o'z domiga torta boshladi. "Shu bilan birga, globallashtirish va axborot xurujlari, turli buzg'unchi g'oyalar ta'sirida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar

tobora kuchaymoqda. Xudbinlik, ya'ni, faqat o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda" [2, 268-b.]. Axborot xavfsizligi muammosi davlat va jamiyatning barcha sohalari – iqtisodiyot, siyosat, ilm-fan, madaniyat, milliy va xalqaro xavfsizlikning sifatli axborot almashinuvi, axborot va telekommunikatsiya tizimi, texnologiya va vositalariga tobe bo'lib qolganiga asoslanadi. Yoshlarning axborot sohasidagi manfaatlari ularning axborotga ega bo'lish, qonunan ta'qiqlanmagan faoliyatni, ya'ni jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanish jarayonida axborotdan foydalanish borasidagi konstitutsion huquqlarining amalga oshirilishining ta'minlanishini nazarda tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Yoshlarning ma'naviy-axloqiy borlig'ining barqarorligiga axborotlashgan jamiyat va axborot bilan bog'liq jarayonlar katta ta'sir ko'rsatadi. Turli tuman axborotlar yoshlarning har xil guruhlari va qatlamlariga o'ziga xos ravishda ta'sir ko'rsatadi. Bu eng avvalo, axborot manbalarining ko'lami, mohiyati va qanday maqsadlarga qaratilganligiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi zamonaviy asoslardagi tezkor ko'lamdagi axborotlar oqimining mavjudligi sharoitida kommunikativ texnologiyalar jadal rivojlanib bormoqda. Mazkur axborot oqimlarining destruktiv, ya'ni vayronkor asoslardagi yo'nalishlari yoshlar ma'naviy qiyofasini izdan chiqarishga bo'lgan xususiyatlari bilan farqlanmoqda. Globallashtirish sharoitida axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning ma'lum maqsadlarga yo'nalganligi yoshlarning hayot tarzini belgilab beruvchi omil sifatida maydonga kelmoqda.

Olimlarning ta'kidlashicha, "Globallashtirish davrida tahdidlarning turlari, tez ta'sir o'tkazish yo'llari ko'paydi va ommalashib bormoqda.

Ularning quyidagi turlarini sanab o'tish mumkin: diniy ekstremizm, xalqaro terrorism, giyohvandlik, ommaviy madaniyat, kosmopolitizm (dunyo fuqarosi yoki vatansizlik hoyasi), ludomaniya (kompyuter o'yinlari kasalligi yoki asr kasalligi), missionerlik, prozelitizm, nigilizm (urf-odat, an'ana va qadriyatlarga bepisand munosabatda bo'lish, ularni inkor etish), zo'rvonlik (fashizm, neofashizm, shovinizm), egotsentrizm, individulizm, OITS, starizm (yulduzlarga ko'r-ko'rona taqlid), vandalizm (madaniy va moddiy yodgorliklarni vayron qilish), axloqsizlik (fohishabozlik, behayolik, bir jinsli nikohlar), xepining (vahshiyona ko'ngil ochishlar)" [3, 6-b.].

Ma'lumki, bugungi kunda axborot oqimlari haddan tashqari jadal va keng ko'lamlidir. Bitta misol: oxirgi ellik yil ichida jamiyatda aylanadigan axborot hajmi 1 million marta ko'paydi va kundun kunga yanada oshib bormoqda. Bu shunday bir katta raqamki, uni to'la darajada anglab olish ham qiyin. Shuni aytish zarurki, bunday imkoniyatlar hamma davlatlarga ham xos emas.

Demak, texnikaviy jihatdan qudratli bo'lgan davlatlar kuchli axborot texnologiyalariga ega. Shuning evaziga ular o'zlari ishlab chiqqan axborotni tarqatish yo'li bilan boshqa mamlakatlar ustidan oldin g'oyaviy, keyin esa siyosiy, iqtisodiy va madaniy hukmronlik qilishga harakat qilmoqda. Bunday davlatlar sirasiga eng avvalo rivojlangan mamlakatlar kiradi. "Axborot urushi deb, ijtimoiy, siyosiy, etnik va boshqa tizimlarning moddiy yutuqqa ega bo'lish maqsadida bir-biriga ochiq va yashirin maqsadli axborot ta'sirlarga aytiladi. Shu bilan bir qatorda axborot urushini deb yanada raqib ustidan axborot hukmronlikka erishish va shuning evaziga unga moddiy, mafkuraviy yoki boshqacha zarar yetkazish uchun davlatning harbiy kuchlari, hukumati hamda hususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tabdirlar va operatsiyalar majmuasiga aytiladi" [4, 203-b.].

Ochiq axborot kommunikatsiyasi jarayonida yoshlar ongiga ta'sir etayotgan yot g'oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval yoshlarning ijtimoiy xulq-atvorini o'rganish lozim. Ijtimoiy xulqda ko'zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri tashvishlanish, nimalardandir cho'chish va shu tufaydi ijtimoiy munosabatlardan o'zini olib qochishga intilish hislarining namoyon bo'lishidir. Chunki agar psixologik himoya

holatining mohiyatidan kelib chiqiladigan bo'lsa, bu – shaxs ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo'tadillikni asrash uchun o'zidagi xavotirlanish, qo'rquv va hadiksirashlarini bosishga, ulardan xalos bo'lishga intiladi. Psixologik himoya – shaxsni turli salbiy ta'sirlardan asrashga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga xizmat qiladi [5, 25-b.].

Ta'lim va tarbiya jarayonida har bir pedagog yoshlarning mustaqil fikrlashlari uchun sharoit yaratishi lozim, aks holda uning ongi tayyor shablonlar, stereotiplarga shu qadar o'rganadiki, ular oxir-oqibat har qanday bid'at yoki yot g'oyalarga ergashib ketaveradigan bo'lib qoladi. Ya'ni, darslar va treninglarni tashkil etishning noan'anaviy usullariga keng yo'l ochish, darslarda o'quvchilar bilan interaktiv muloqotini tashkil etish, ular ongining yaxshiroq ishlashi, qiziqishi va mustaqil fikrlashga yordam beradi. Ta'lim tizimidagi jarayonlar insonni ma'naviyatli va ma'rifatli qilib tarbiyalash, barkamol qilib voyaga yetkazadi. U ezgulikni maqsad qilib olgan insonni kamolga yetkazadi, natijada ma'naviyatli inson hamisha yaxshilik sari intiladi. Yuragining tub-tubidan joy olgan ana shu tuyg'u tufayli yashashga idrok topib, har ishda muvaffaqiyatga erishaveradi, o'z kelajagiga zamin yaratadi [6, 83-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolani yozish jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, dialektik, retrospektiv, qiyosiy tahlil va tizimli yondoshuv kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

O'zbekiston Respublikasida yoshlar o'rtasida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishlar holati quyidagi muhim masalalarning yechilishini zarur deb hisoblaymiz:

- O'zbekiston Respublikasida yoshlar o'rtasida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha asosiy yo'nalishlarini va uni amalga oshirish bilan bog'liq mexanizm va chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- Yoshlar o'rtasida axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash huquqiy–normativ bazasini takomillashtirish;

- Dunyodagi hozirgi geosiyosiy vaziyatni hisobga olgan holda yoshlar o'rtasida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ilmiy-amaliy asoslarini rivojlantirish;

- Axborot xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-texnik va huquqiy masalalarini yechishda xalqaro va horijiy tashkilotlar bilan aloqalarni kengaytirish.

XXI asr axborot texnologiyalari kundankunga taraqqiy etib borayotgan davr sifatida davlatlar, qit'alar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etishga qodir yagona axborot makonini vujudga keltirmoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoitida axborotlar bir qator maqsadlarga ega bo'lib, bular quyidagilardan iboratdir:

- axborot zahiralari bitmas-tuganmas bo'lib, jamiyatning rivojlanishi va axborotga bo'lgan talabning ortib borishi bilan ular doimiy ravishda ko'payib boradi;

- jamiyat hayotida axborotdan foydalanish imkoniyati doimo saqlanib turadi;

- axborotni zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali bir zumda istalgan joyga etkazish mumkin;

- axborotning mazmuni vaqt o'tishi bilan o'zgarib, tarixiy fakt sifatida muayyan qimmatga ega bo'ladi;

- axborot zahiralari boshqa zahiralalar bilan birlashgan holatda harakatlanuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Axborot kommunikatsiyalari va internet orqali yoshlar ongiga singayotgan mafkuraviy xurujlar bir necha guruhga bo'linib, ularga quyidagilar taalluqlidir:

1. Yoshlarning ongi va tafakkuriga ta'sir qilishga qaratilgan xurujlar. O'zbek xalqining milliy mentalitetida, dunyoqarashi hamda xulq-atvor normalarida ota-onaga, o'zi yashayotgan mahalla jamoasiga, katta yoshdagi kishilarga chuqur hurmat bilan qarash, muayyan voqea va hodisalarga bosiqlik, mulohaza va andisha bilan munosabatda bo'lish, jamoa fikriga nisbatan alohida ehtirom ko'rsatish kabi hislatlar ustuvorlik qilib, aynan mana shu qadriyatlar jamiyatimiz ma'naviyatining tamal toshini tashkil qiladi. Axborot kommunikatsiyalari va internet orqali qilinayotgan mafkuraviy xurujlarda xalqimizning mana shunday ulug'vor qadriyatlariga mutlaqo teskari va begona bo'lgan, asosan "individualizm", "egoizm", "kosmopolitizm", "zo'ravonlik", "diniy mutaassiblik" kabi vayronkor g'oyalarni iloji boricha chiroyli niqoblarga o'rab, jamiyatimizga olib kirishga harakat qilinadi.

2. Xalqimizning milliy urf-odatlariga nisbatan bo'layotgan g'oyaviy, mafkuraviy xurujlar. O'zbek xalqining o'ziga xos milliy urf-odatlar, an'analari, udumlari va marosimlari shakllangan bo'lib, jamoa bo'lib yashash, qarindosh urug'larga mehribonlik, to'y va ma'rakalar, bayramlar, tarbiya masalalarida, hasharlarda ijtimoiy hamkorlikning, jamoaviylik an'anasining yuqori darajada namoyon bo'lishi shular jumlasidandir. Xalqimizning bu urf-odatlar asrlar davomida jamiyat mustahkamligining asosi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

3. O'zbek xalqining milliy madaniyatiga bo'layotgan g'oyaviy, mafkuraviy xurujlar. O'zbek xalqining milliy madaniyati o'zining qadimiyligi, boyligi bilan alohida ajralib turadi. Markaziy Osiyo tarixida aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan allomalar, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Axmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Mahmud Zamahshariy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Axborot urushi tushunchasi va uning g'oyaviy tabiati va mafkuraviy xususiyatlarini shakllantirish uchun quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratish lozim: yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy salohiyatini o'stirish va barkamol avlod tarbiyasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalari yutuqlaridan oqilona va maqsadli foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va axborotlardan foydalanish muhitini yaratish, internet tarmog'ida yoshlarga, ularning qiziqishlariga va intilishlariga, axborot ehtiyojlariga yo'naltirilgan elektron manbalarni tashkil etish masalalari. Yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda milliy g'oya va mafkurani targ'ib qiluvchi, insonning o'zligini anglatuvchi, kuchli g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, badiiy, sport, harbiy-vatanparvarlik, milliy o'yinlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar yo'nalishlarida milliy axborot resurslarini yaratish

va rivojlantirish masalalariga katta e'tibor beriladi. Hozirgi vaqtda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya maydonida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi kurashish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnoma. 2023-yil 20-dekabr <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B. 268.
3. Qosimov N., Jumayev Sh., Tog'ayqulov T. Globallashuv: oila va farzand tarbiyasi (Ota-

onalar uchun ilmiy-amaliy qo'llanma). –Toshkent, “Turon zamin ziyo”, 2016. – B. 6.

4. Манойло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. вып-2. М.: Горячая линия – Телеком. 2006, с.203.

5. Masharipova G.K. O'rta asrning buyuk kashfiyotlari - xorazmlik matematiklarining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar. Monografiya. - Toshkent: Navro'z nashriyoti, 202. – 210 b.

6. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya.- Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2019. – 364 b.

